



UDK:811.512

Ikrom I. ISLOMOV,

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, Renessans ta'lim universiteti. Toshkent. O'zbekiston.

E-mail: ikromislomov75@gmail.com, ORCID: 0000-0002-5011-1572

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d. Sh.Hamroyeva taqrizi asosida

FILOLOGIK TA'LIM MAZMUNINI MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOSLASHTIRISHDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI YANGILASHNING KONSEPTUAL VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Аннотация

Maqolada filologik ta'lim mazmunini zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish muammosi tahlil qilinadi. Unda nazariy tayyorgarlik bilan amaliy va raqamli kompetensiyalar o'rtasidagi nomutanosiblik asosiy muammo sifatida ko'rsatiladi. Muallif filolog bitiruvchi uchun tahrir, tarjima, mediamatn yaratish, terminologik ishlov va sun'iy intellekt vositalari bilan ishlash ko'nikmalari zarurligini asoslaydi. Maqolada "skills mismatch" hodisasi filologik ta'lim nuqtayi nazaridan sharhlanadi. Shu asosda fundamental, kommunikativ-editorlik, tarjima, raqamli-amaliy va loyiha-kommunikativ komponentlardan iborat lingvistik kompetensiyalar modeli taklif etiladi. O'quv dasturlarini modullashtirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish va loyiha asosidagi ta'limni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Xulosa sifatida mazkur yondashuv filolog bitiruvchining bandligi, kasbiy moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshirishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: filologik ta'lim, mehnat bozori, lingvistik kompetensiya, raqamli ko'nikmalar, lokalizatsiya, terminologik menejment.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ОБНОВЛЕНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В АДАПТАЦИИ СОДЕРЖАНИЯ ФИЛОСОФСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ТРЕБОВАНИЯМ РЫНКА ТРУДА.

Аннотация

В статье анализируется проблема адаптации содержания филологического образования к современным требованиям рынка труда. Основное внимание уделяется разрыву между теоретической подготовкой и практическими, цифровыми и профессиональными компетенциями выпускника. Автор обосновывает необходимость формирования у филолога навыков редактирования, перевода, создания медиатекстов, терминологической обработки и работы с инструментами искусственного интеллекта. Явление "skills mismatch" рассматривается применительно к сфере филологического образования. На этой основе предлагается модель лингвистических компетенций, включающая фундаментальный, редакторско-коммуникативный, переводческий, цифровой и проектно-коммуникативный компоненты. Подчеркивается необходимость обновления учебных программ, расширения взаимодействия с работодателями и внедрения проектного обучения. Сделан вывод о том, что такой подход повышает занятость, профессиональную адаптивность и конкурентоспособность выпускника-филолога.

Ключевые слова: филологическое образование, рынок труда, лингвистическая компетенция, цифровые навыки, локализация, терминологический менеджмент.

CONCEPTUAL AND INSTITUTIONAL BASES OF RENEWING LINGUISTIC COMPETENCES IN ADAPTATION OF PHILOLOGICAL EDUCATION CONTENT TO THE REQUIREMENTS OF THE LABOR MARKET

Annotation

The article examines the problem of aligning philological education with the current demands of the labor market. It focuses on the gap between theoretical training and the practical, digital, and professional competencies expected from graduates. The author argues that philology students need skills in editing, translation, media text production, terminology work, and the use of artificial intelligence tools. The phenomenon of skills mismatch is interpreted within the framework of philological education. On this basis, the paper proposes a model of linguistic competencies including fundamental, communicative-editorial, translation, digital-applied, and project-communication components. It also emphasizes the need to modernize curricula, strengthen cooperation with employers, and introduce project-based learning. The study concludes that such an approach can improve graduates' employability, professional adaptability, and competitiveness.

Keywords: philological education, labor market, linguistic competence, digital skills, localization, terminology management.

Kirish. Bugungi kunga kelib globallashtirish, axborot texnologiyalari, raqamli transformatsiya va mehnat munosabatlarining jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimining oldiga faqat nazariy bilim berish emas, shu bilan birga bandlikka yo'naltirilgan, moslashuvchan va kuchli kompetensiyaga ega mutaxassis, kadr tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sifatini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqib yaxshilash, fan, ta'lim va ishlab chiqarish

integratsiyasini kuchaytirish hamda kadrlar buyurtmachilarini tayyorlash jarayoniga faol jalb etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [1]. Shu jihatdan filologik ta'lim mazmunini ham mehnat bozori talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqish zarurati dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi mehnat bozori filolog bitiruvchidan faqat til tizimi va qurilishi, grammatik, leksikologik va adabiy me'yorlar yuzasidan ilmiy-amaliy bilimlarni emas, balki tahrir, tarjima, mediamatn yaratish, akademik va amaliy yozuv, terminologik ishlov, korpus va raqamli resurslar bilan

ishlash, sun'iy intellekt vositalari yordamida matn tahlili, tabiiy til materiallarini qayta ishlash kabi ko'nikmalarni ham talab qilmoqda. Jahon iqtisodiy forumining 2025-yilgi hisobotida ko'nikmalar tafovuti biznes transformatsiyasidagi asosiy to'siqlardan biri sifatida qayd etiladi [2]. Ushbu yondashuv filologik ta'limda ham an'anaviy mazmun bilan amaliy talablar o'rtasidagi tafovut va nomutanosibliklarni bartaraf etishni taqozo qiladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlarida ko'nikmalar nomutanosibligi faqat passiv ta'lim sifati bilangina emas, balki texnologik o'zgarishlar, demografik siljishlar va mehnatni tashkil etishning yangi shakllari bilan ham bog'liqligi, u mehnat bozori natijalari, unumdorlik va raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir qilishi alohida masala sifatida ta'kidlanadi [3]. Demak, filologik ta'lim muammosini faqat o'quv fanlari soni, mavzular xilma-xilligi yoki soat taqsimoti masalasi sifatida emas, balki kompetensiyalarni qayta loyihalash, ta'lim natijalarini kasbiy standartlarga bog'lash va ish beruvchi bilan hamkorlikni tizimlashtirish, barqarorlashtirish masalasi sifatida yondashish maqsadga muvofiqlik kasb etadi.

Bugungi kunda filologik ta'lim mazmuni bilan mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi mavjud tafovut va nomutanosibliklarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ularning asosiy sabablarini aniqlash, yangilangan lingvistik kompetensiyalar tizimini taklif etish hamda oliy ta'lim va mehnat bozori hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladigan konseptual va muayyan ijtimoiy, ta'limiy yoki boshqaruv jarayonini amalga oshirish, tartibga solish va nazorat qilishga xizmat qiluvchi tashkilot va tuzilmalar, me'yoriy asoslar, boshqaruv subyektlari hamda ularning o'zaro aloqalari masalasiga jiddiy e'tibor qaratish dolzarblik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda xodim yoki bitiruvchining bilim, ko'nikma va kompetensiyalari mehnat bozori talablari bilan mos kelmasligi ("skills mismatch") tushunchasi ko'pincha ta'lim sifati, tayyorgarlik yo'nalishi va real ish faoliyatida zarur bo'ladigan ko'nikmalar o'rtasidagi nomutanosiblik sifatida izohlanadi. ILOSTAT (mehnat bozori, bandlik, ishsizlik va kasbiy ko'nikmalar bilan bog'liq xalqaro statistik ko'rsatkichlarni jamlaydigan ILO(Xalqaro mehnat tashkiloti)ning rasmiy ochiq ma'lumotlar tizimi) metodologik izohlarida ushbu hodisa ta'lim darajasi bo'yicha nomuvofiqlik, ta'lim yo'nalishi bo'yicha nomuvofiqlik va ko'nikmalar tafovuti kabi shakllarda namoyon bo'lishi qayd qilinadi [4]. Ushbu nazariy yondashuv filologik ta'limni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bitiruvchining oliy ma'lumotga egaligi uning kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligini kafolatlamaydi.

So'nggi yillardagi xalqaro tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablari asosida qayta ko'rish masalasi markaziy o'ringa chiqmoqda. Ta'limni raqamli transformatsiya qilish, AKT va sun'iy intellekt vositalarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilish hamda o'qituvchilarning raqamli salohiyatini rivojlantirishga ixtisoslashgan UNESCO instituti tomonidan O'zbekiston bo'yicha tayyorlangan tahliliy hisobotda oliy ta'lim va tayyorlov dasturlarining axborotni yaratish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va almashishni ta'minlaydigan texnologik vositalar hamda kommunikatsion tizimlar (AKT) ko'nikmalariga bo'lgan mehnat bozori talablariga mosligi alohida tahlil qilinib, raqamli iqtisodiyot uchun zarur kompetensiyalarni o'quv dasturlariga chuqur integratsiya qilish tavsiya etiladi [5]. Mazkur yondashuv filologik ta'lim uchun ham ahamiyatlidir, zero zamonaviy filolog faoliyati raqamli platformalar, multimodal matnlar va sun'iy intellekt vositalaridan xoli tarzda tasavvur etish mushkul.

Milliy me'yoriy-huquqiy bazada ham ta'lim mazmunining mehnat bozori bilan uzviy bog'liqligi aniq belgilangan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda tayanch oliy ta'lim muassasalari kadrlar talabgorlari ishtirokida davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va o'quv dasturlarini tayyorlashi, davlat ta'lim standartlari esa kasbiy standartlar asosida ishlab chiqilishi alohida qayd qilinadi [6]. 2024-yilgi hukumat qarorida oliy ta'lim standartlari Milliy malaka ramkasining 6- va 7-bosqichlari bilan muvofiqlashtirilishi qayd etiladi [7]. Bu esa filologik ta'limni umumiy nazariy tayyorgarlik

doirasidagina emas, balki aniq natijaga yo'naltirilgan kompetensiyalar tizimi doirasida qayta ko'rib chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Konseptual jihatdan kompetensiyaviy yondashuvning afzalligi shundaki, u ta'lim mazmunini alohida fanlar yig'indisi sifatida emas, balki sohaga oid kasbiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladigan turli yondashuvlar yoki kompetensiyalarning uzviy birikishi asosida shakllanadigan va tizimli samaradorlikni ifodalovchi yakuniy natijalar tizimi sifatida talqin qiladi. Qayd qilish joizki, filologik ta'limda nazariy tilshunoslik, uslubshunoslik, matnshunoslik, tarjima, nutq madaniyati va raqamli kommunikatsiya o'rtasidagi ichki bog'liqlikni bitta tizimga keltirish masalasi muhim hisoblanadi. Shunda bitiruvchining tayyorgarligi va malakasi "fanni bilish" darajasidan "sohaviy, kasbiy vazifani bajara olish" darajasiga ko'tariladi. Shu bois filologik ta'lim uchun kompetensiya modelini ishlab chiqish nafaqat didaktik, balki ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq masaladir.

Biroq adabiyotlar tahlili mehnat bozori bilan uyg'unlashuv masalasi ko'proq texnik, iqtisodiy va axborot texnologiyalari yo'nalishlari doirasida tadqiq qilinganligini ko'rsatadi. Filologik ta'lim doirasida esa asosan til, adabiyot o'qitish metodikasi, nazariy filologik tayyorgarlik yoki pedagogik kompetensiya haqida fikr yuritiladi, biroq media, nashriyot, muayyan mahsulot yoki matnni maqsadli auditoriyaning til, madaniyat va kommunikativ ehtiyojlariga muvofiq ravishda moslashtirish jarayoni, raqamli yoki an'anaviy kommunikatsiya muhitida axborot mazmunini ishlab chiqish, tartibga solish, tarqatish va tahlil qilishga qaratilgan tashkiliy-amaliy faoliyat tizimi, til texnologiyalari, terminologik xizmatlar va raqamli kommunikatsiya bilan bog'liq amaliy kompetensiyalar yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Birinchidan, filologik ta'lim mazmuni bilan mehnat bozori o'rtasidagi tafovut bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi.

o'quv dasturlari ko'pincha nazariy-tavsifiy bloklarga ko'proq e'tibor beradi, amaliy tahrir, tarjima amaliyoti, lokalizatsiya, kontent ishlab chiqish, terminologik bazalar bilan ishlash, korpus tahlili, ilmiy kommunikatsiya kabi modullar esa cheklangan hajmda qoladi;

ta'lim natijalari ko'pincha "biladi", "izohlay oladi", "tahlil qiladi" kabi umumiy o'lchovlar bilan cheklanadi, biroq bitiruvchining real ish vazifalarini bajarishga oid aniq mezonlar yetarli emas;

mehnat bozori esa filolog mutaxassisdan ko'p qirrali kommunikatsiya, matn bilan tezkor ishlash, raqamli muhitga moslashish va kasbiy moslashuvchanlikni talab qiladi. Oxir-oqibatda esa diplom bilan kasbiy tayyorgarlik o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi.

Ikkinchidan, mazkur tafovut va nomutanosiblikning sabablari o'quv dasturlari va ta'limni boshqarish tizimining o'zida. Eng avvalo, filologik ta'limda kompetensiyalar ko'pincha fanlar kesimida alohida holda shakllantiriladi; bu esa yakuniy kasbiy ixtisoslikning mukammal tarzidagi natijasiga to'siqlik qiladi. Yana bitta sababi ish beruvchi subyektlarining o'quv reja va dastur, modullarni yangilash, takomillashtirish jarayonidagi ishtirokining passivligidir. Uchinchi sabab raqamli kompetensiyalarni tilshunoslikning ichki ehtiyojiga moslashtirib beradigan maxsus modullarning yetarli darajada emasligi. To'rtinchi sabab amaliyot va tajriba o'rganishning ko'p hollarda yuzaki tashkil etilishi bo'lib, unda talabning real loyiha, real matn yoki real auditoriya bilan ishlash tajribasi yetarli darajada ta'minlanmaydi.

Uchinchidan, filologik ta'lim uchun yangilangan lingvistik kompetensiyalar modeli taklif etilishi lozim. Mazkur model besh asosiy kompetensiyaga tayanadi:

1) asosiy (fundamental) lingvistik kompetensiya – til tizimi, me'yoriy, uslub, matn va diskursga oid mustahkam nazariy bilim;

2) kommunikativ-editorlik (matnning mazmuni, tuzilishi, uslubi va til vositalarini adresat, kommunikativ vazifa hamda qabul qilish sharoitiga muvofiqlashtirishga qaratilgan tahrir qilish) kompetensiyasi – matnni tahrirlash, uslubiy moslashtirish, rasmiy, ilmiy, publitsistik nutq mahsulotlarini yaratish;

3) tarjima hamda til, madaniyat va kommunikativ xulqdag'i tafovutlarni hisobga olgan holda, matn yoki nutq mazmunini boshqa madaniyat vakiliga adekvat va tushunarli shaklda yetkazish kompetensiyasi – mazmun ko'chirish, kontekstual moslashtirish, termin tanlash va kommunikativ muqobillikni ta'minlash;

4) raqamli-amaliy lingvistik kompetensiya – korpus, elektron lug'at, terminologik baza, sun'iy intellekt vositalari, kontent platformalari va analitik servislar bilan ishlash;

5) loyiha va shaxsning kasbiy faoliyatida samarali muloqot, hamkorlik, moslashuv, o'zini boshqarish va muammolarni hal etishni ta'minlaydigan universal ijtimoiy-psixologik hamda kommunikativ kompetensiyasi – jamoaviy ish, taqdimot, muzokara, vaqtni boshqarish, buyurtmachi bilan ishlash va mahsulot natijasiga javobgarlik.

Mazkur klasterlar filolog bitiruvchining faqat pedagog emas, balki ko'p vazifali til mutaxassisi sifatidagi shaxsini shakllantiradi.

To'rtinchidan, kompetensiya modelini hayotga tatbiq etish uchun muayyan jarayonni amalga oshirish, boshqarish va nazorat qilishni ta'minlaydigan tizim, qoidalar, tartiblar va hamkorlik shakllari zarur. Birinchi mexanizm – o'quv dasturlarini modullashtirish va ularni mehnat bozori sohalari bilan bog'lashdir. Bunda filologiya yo'nalishlari uchun "Raqamli matn tahlili", "Akademik va amaliy yozuv", "Mediamatn tahriri", "Lokalizatsiya asoslari", "Terminologik menejment", "Til va sun'iy intellekt" kabi modullar joriy etilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchi mexanizm – ish beruvchilar ishtirokidagi maslahat kengashlarini joriy etish bo'lib, ularga maktab, OAV, nashriyat, tarjima markazi, IT-kontent kompaniyalari, davlat idoralari matbuot xizmati va xususiy kommunikatsiya sohasi vakillari kiritilishi kerak. Uchinchi mexanizm – dual va loyiha asosidagi ta'lim elementlarini kuchaytirishdir: talaba kurs ishi yoki bitiruv malakaviy ishidan tashqari, real buyurtma asosida matn, tarjima, lug'at maqolasi, media mahsulot yoki analitik sharh tayyorlashi kerak.

Beshinchidan, baholash tizimi ham kompetensiyaviy modelga mos tarzda yangilanishi zarur. Nazariy savollarga javob berishning o'zi yetarli emas; talabning tahririyat topshirig'i, tarjima portfeli, raqamli loyiha, korpus asosidagi mikro tadqiqot, terminologik kartoteka, podkast yoki media sharh kabi amaliy mahsulotlari ham baholash obyekti bo'lishi lozim. Bunday yondashuv bitiruvchining kasbiy tayyorgarligini o'lgashda ancha ishonchli natija beradi. Shu bilan birga, malaka talablari va fan dasturlari o'rtasida vertikal uzviylikni ta'minlash, har bir fan hissasini umumiy kompetensiyalar doirasida aniq belgilash zarur.

Oltinchidan, taklif etilayotgan modelni samarali ishlatish uchun universitet ichki boshqaruvida ham ma'lum o'zgarishlar zarur. Kafedra, ish beruvchi va talaba o'rtasidagi aloqa faqat amaliyot davri bilan cheklanib qolmasligi, balki semestr boshidan modul natijalarini belgilash, oraliq loyiha vazifalarini aniqlash va yakuniy baholashgacha davom etishi kerak. Shuningdek, bitiruvchilar monitoringi, ishga joylashish dinamikasi va ish

beruvchilar fikrini muntazam o'rganish asosida o'quv dasturiga har yili yangilanishlarni kiritib borish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv filologik ta'limni turg'un emas, balki mehnat bozori talabiga tez javob beradigan dinamik tizimga aylantiradi.

Yettinchidan, taklif etilayotgan modelning kutilayotgan natijasi bitiruvchining bandligi va kasbiy moslashuvchanligining oshishida namoyon bo'ladi. Yangilangan filologik ta'lim bitiruvchini faqat bitta an'anaviy ish o'rniga emas, balki bir necha kasbiy sohalarga tayyorlaydi: ta'lim, nashriyat, OAV, tahririyat, tarjima, lokalizatsiya(mahsulot, dastur, sayt, matn yoki xizmatni muayyan til, hudud va madaniy muhitga moslashtirish), terminologiya, kontent menejmenti(raqamli yoki an'anaviy kommunikatsiya muhitida axborot mazmunini yaratish, tuzish, saqlash, tarqatish va monitoring qilishga qaratilgan tashkiliy-amaliy boshqaruv), ilmiy-kommunikativ faoliyat va til texnologiyalari bilan bog'liq xizmatlar shular jumlasidandir. Bunday keng yo'nalishli tayyorgarlik mehnat bozori o'zgaruvchan bo'lgan sharoitda filologiya mutaxassisining raqobatbardoshligini oshiradi. Demak, filologik ta'lim mazmunini yangilash masalasi kichik ilmiy muammo emas, balki inson kapitali va mehnat resurslari sifatini oshirishga xizmat qiladigan uzoq muddatli maqsadga erishish borasidagi tizimli yondashuv hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Kuzatish va tahlillar natijasi filologik ta'lim mazmuni bilan mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomutanosiblik tasodifiy holat emas, balki nazariy tayyorgarlikning amaliy va raqamli kompetensiyalar bilan yetarlicha uyg'unlashmaganidan kelib chiqadigan tizimli muammo ekanligini ko'rsatmoqda. Mehnat bozori filolog mutaxassisidan ko'p vazifali, malakali kasbiy tayyorgarlikni talab qilayotgan ayni davrda o'quv dasturlarida amaliy, raqamli va mahsulotga yo'naltirilgan modullar ulushi yetarli emas.

Shu bois ushbu mavzu doirasidagi masala yuzasidan quyidagi takliflarni qayd qilish maqsadga muvofiq: birinchidan, filologiya yo'nalishlari bo'yicha malaka talablari va o'quv dasturlarini ish beruvchilar bilan hamkorlikda kompetensiyaviy tahlil o'tkazish; ikkinchidan, o'quv rejalariga raqamli-amaliy tilshunoslik, mediamatn, terminologik menejment, lokalizatsiya va sun'iy intellekt vositalari bilan ishlashga doir modullarni kiritish; uchinchidan, tajriba va amaliyotni aniq, natijador loyiha asosida tashkil etish; to'rtinchidan, bitiruvchini baholashda nazariy bilim bilan birga ko'nikma va malakani ham asosiy mezonga aylantirish; beshinchidan, filologik ta'lim dasturlarida mehnat bozori monitoringi va bitiruvchi yo'nalishini kuzatish tizimini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, lingvistik kompetensiyalarni yangilashning konseptual, tashkiliy, huquqiy, me'yoriy, boshqaruv asoslarini ishlab chiqish filologik ta'limni zamonaviy mehnat bozori bilan yaqinlashtiradi, bitiruvchining bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi. Shu ma'noda, filologik ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish – ta'lim sifati, ijtimoiy buyurtma va milliy taraqqiyot manfaatlarini birlashtiruvchi ustuvor yo'nalish sifatida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. Всемирный экономический форум. Доклад о будущем рабочих мест – 2025. – Женева: Всемирный экономический форум, 2025.
3. Международная организация труда. Несоответствие навыков и рабочих мест в странах с низким и средним уровнем дохода. Женева: МОТ, 2020.
4. ILOSTAT. Индикаторы образования и несоответствия (база данных ЕМИ): понятия и определения. – Женева: Международная организация труда, 2026.
5. UNESCO ИТЕ. Развитие навыков ИКТ в Республике Узбекистан: аналитический отчет с рекомендациями. – Москва: ЮНЕСКО ИИТО, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 157-son qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.